

BUTUN YURT PARVARISHLAGAN SAKSOVULMIZ



Sheraliyev Obidjon Xomidjonovich

Namangan davlat universiteti tabiiy fanlar
5A140101-Biologiya (O‘simliklar fiziologiyasi)
mutaxassisligi magistranti +998932437732
sheraliyevobidjon@gmail.com

Annotatsiya: O‘simliklar dunyosini yashash faoliyati uchun qulay sharoitlarni ta‘minlashga, uning yo‘q qilib yuborilishining yoki unga boshqacha zararli ta‘sir ko‘rsatilishining oldini olishga qaratilgan faoliyat; o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish bo‘yicha biotexnik tadbirlar-o‘simlik dunyosini saqlab qolish, tiklash, takror ko‘paytirish va undan oqilona foydalanishga, u o‘sadigan muhitni saqlab qolish.

Kalit so‘zlar: oq saksovul, qora saksovul, sho‘rlanish, muhofaza qilish.

O‘zbekistonda cho‘lni pastida qora saksovul, yuqorisida oq saksovul yashaymiz. Shox va novdalarimizda barglar yo‘q. Bag‘oyat issiq, quruq, shamolli, qumli joylarda barglar vazifalarini yosh yashil novdalar bajaradi. Ular bo‘g‘imli, oson sinadi biz ularni avaylaymiz. Gullarimiz ko‘rimsiz yashayotgan sharoitimizdan ko‘rimlilikka xojat yo‘q. Urug‘larimiz etdor, yassi 3-5 pardali, ular vositasida uzoqlarga tarqalamiz, o‘sayotgan hududimizni sarhadlarini kengaytiramiz, bunga erishganmiz, unish fayzi 90-95 ni ta‘minlaganmiz.

Biz sabr-bardoshli, boriga baraka tilovchi saksovulmiz alohida sharoit talab qilmaymiz, cho‘l sharoitlarining turli ekologik tuproq sharoitlarini hatto namligi, sho‘rlanishi turli darajada bo‘lgan joylarga ham moslashib o‘zimizga vatan qilganmiz. Bizlar o‘sib turgan joylardagi kaltakesaklar ham, quyosh qizdirishiga chiday olmay ustimizga chiqib atrof shamolidan baxra oladi. Allox, bizga inom etgan 35 dan 60 yillargacha umr ko‘ramiz. Sekin o‘sganimiz bilan yog‘ochimiz og‘ir, suvda cho‘kadi, tanamizda kecha yosh ekanligimizni anglatuvchi yillik halqalarni hosil qilamiz.

Yog‘ochimiz alangasi kuchliligini bilishadi. Quyoshning issig‘ini butun umr yig‘amiz. Bizning yog‘ochligimizdan olinadigan qora ko‘mir dori vositasini oshqozonda bo‘ladigan nohush holatlarni bartaraf qilishda shifokorlar tavsiya qiladi. Chorva mollari uchun yosh yashil novdalarimiz hush ko‘rib iste‘mol qiladigan ozuqa hisoblanadi. Biz saksovullar ko‘chma qumlarni mustahkamlab qolishda beminnat xizmat qilamiz.

Qora saksovulni balandligi 4-9 metrlar keladigan daraxtdir. Shoxlari zichroq joylashgan, rangi artof havoni qizishiga ko‘ra bahorda yorqin to‘q yashil, yozda pushti, kuzda salqin tushishi bilan qo‘ng‘ir tusga kiradi. Bu qora saksovulni atrof muhitga moslashib “kun ko‘rinishiga” intilishidir. Tanasining pastki qismi kulrang-jigarrang tusdaligi uchun unga qora saksovul nomi berilgan. Yosh novda va mevalari sho‘rtob yoki biroz nordon, achchiq emas. 1000 dona urug‘i 4-4,5 gr tosh bosadi shuning uchun ular shamolda juda tez tarqaladi. Qora saksovul tabiatiga ko‘ra sizot suvlari yaqin joylarni hush ko‘radi. Ildizi yaqinidan 4 metrgacha yon bachki nihollarini undirib birinchi yiliyoq bo‘yi 1 metrlargacha yetadi, ildiz bachkilarini hosil qilmaydi.

O‘rta Osiyoga temir yo‘l keltirilganida ko‘chma qumlar bosib qolishidan saqlash maqsadida biz saksovullardan ixota hosil qilishgan. Azim Sirdaryo va Amudaryo suvlaridan oqilona foydalanilmaganligidan Orol dengizi qurish arafasiga keldi. Muhtaram Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkilotining minbaridan Orol dengizini hozirgi holatini sur‘atini butun jahon mamlakatlari vakillariga ko‘rsatgan edilar. Prezidentimizning tashabbusi bilan tagi qurigan, sho‘r bosgan maydonlarda traktorlar yordamida ariqlar ochildi. Mahalliy aholi urug‘larimizni yetkazib berishdi. 706 ming gektar maydonlarga samolyotlar va traktorlarda sepishdi, shamol tuproq zarralari bilan ariqlardagi urug‘larni ko‘mdi, ko‘chatlarimizni ekishdi. Orol zaminidan chuchuk suvlar chiqarildi.

Turmush sharoitidan qiynalib kelgan aholi azaliy maskaniga qaytdi. Mo‘ynoq bir maromda yaratuvchilik ishqini to‘lgan ijodkor xalqi bilan yangi davrni boshladi. Hamjihat ish olib borayotgan rahbarlar, mexnatkash xalq tufayli Orol bo‘yini yashillikka burkovchi, og‘ir tabiiy sharoitlarda ham barot bilan o‘sa oladigan biz saksovullar beminnat xizmatimizni ayamaymiz. Bizlarni ko‘paytirib parvarishlagan butun yurt ahlini shamol osmonga uchiradigan tuz zarralaridan saqlaymiz, hayvonlar uchun yemish, o‘chog‘ingiz olovi, atrof-muhitni yam-yashilligini ta‘minlash, tanangiz sihatini saqlashda bardavom bo‘lamiz. Hamjihatlik bilan ish tutayotgan O‘zbekiston xalqi, odamlariga biz saksovullar kamarbastamiz.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida” (yangi tahriri) 2016-yil 21-sentabr, O‘RQ-409-son. “Xalq so‘zi” gazetasi 2016-yil 22-sentabr 187 (6622)-son.
2. O‘. Pratov, A.S. To‘xtayev, F.A. Azimova, I.Z. Saparboyev, M.T. Umaraliyeva Biologiya (Botanika) Umumiy o‘rta ta’lim maktabining 6-sinf o‘quvchilari uchun darslik. 117, 118, 119- betlar.

